| <b>Sayfullo Mirzoyev</b>   |     |
| International Experiences on Restoration of Financial Stability Through Indicators in Commercial Banking Sector .....  | 666 |
| <b>Solijonova Muxlisa Azamatovna</b>   |     |
| Pensiya yoshining pensiya ta'minoti tizimiga ta'siri.....  | 668 |
| <b>Tursunov Jaxongir Pulatovich</b> , DSc  |     |
| Mamlakat iqtisodiyotini islom moliya instrumentlari orqali rivojlantirish istiqbollari.....  | 673 |
| <b>Xalikov Ulug'bek Rustamovich</b> , PhD  |     |
| Sug'urta kompaniyalari va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayonini zarurligi va ahamiyati.....   | 678 |
| <b>Xudoyberdiyeva Sadoqat Abdumannonova</b> , mustaqil izlanuvchisi  |     |
| Qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning innovatsion menejment tamoyillari... 683   |     |
| <b>Shaniyazova Zamira Oralbayevna</b> , PhD  |     |
| Тенденции развития жилищного строительства.....  | 688 |
| <b>Алиева Зилола Маматвалиевна</b> , доцент кафедры  |     |
| Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning innovatsion usullari.....  | 692 |
| <b>Shakirova Nigora Axralovna</b> , kafedra dotsenti v.b.  |     |
| Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'larining shakllanishi va nazorat qilinishi.....  | 698 |
| <b>Xusanov Nishonboy Abdusattarovich</b> , filologiya fanlari doktori, professor   |     |
| Спиртные напитки - вред здоровью .....   | 702 |
| <b>Кариева Халима Икромжоновна</b> , старший преподаватель кафедры   |     |
| Importance of Social Infrastructure Development in Rural Areas .....   | 706 |
| <b>Munisa Alimova</b>  |     |
| Davlat xizmatida agile loyiha boshqaruvi texnologiyasidan foydalanish .....  | 709 |
| <b>Isaqova Zebo Murodovna</b> , f.f.n. (PhD), tadqiqotchi  |     |
| Korxonalar moliyaviy tahlilining ahamiyati .....   | 714 |
| <b>Karimov Eminjon Gapardjonovich</b> , doktorant  |     |
| Рекреация как основа духовно-культурного возрождения нации и социально-экономического развития страны .....  | 716 |
| <b>Алимова Гузал Алишеровна</b> , Доктор философии (PhD) по экономическим наукам   |     |



# MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA REKREATSIYA TURIZMI

**Shaymanova Nigora Yusupovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlari – Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikistonning turizmni rivojlantirishda rekreatsiya resurslaridan foydalanish jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, rekreatsiya, mintaqa, rekreatsiya resurslari, rekreatsion salohiyat, landschaft.

**Abstract:** The article analyzes the aspects of the use of recreation resources in the development of tourism in the countries of Central Asia – Kazakhstan, Uzbekistan, Kyrgyzstan, Turkmenistan and Tajikistan.

**Key words:** tourism, recreation, region, recreational resources, recreational potential, landscape.

**Аннотация:** В статье анализируются аспекты использования рекреационных ресурсов в развитии туризма в странах Центральной Азии – Казахстане, Узбекистане, Кыргызстане, Туркменистане и Таджикистане.

**Ключевые слова:** туризм, рекреация, регион, рекреационные ресурсы, рекреационный потенциал, ландшафт.

## KIRISH

Rekreatsion faoliyatning rivojlanishi aholining dam olish sifatini oshirish, jismoniy va ma'naviy salomatligini tiklashning ajralmas shartidir. Bu jarayon o'z navbatida mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirishga, mintaqalar va davlatlarning iqtisodiy o'sishini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Rekreatsion faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari tabiiy omillar va atrof-muhitning rekreatsion salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlari turizmning rekreatsiya turini rivojlantirishda katta salohiyatga ega hisoblanadi. Beshta respublikaning o'ziga xos va takrorlanmas iqlimi, go'zal landschafti, dam olish uchun resurslarning yetarliligi, jozibador hududlarning mavjudligi mazkur mintaqaning turizm sohasini rivojlantirishda keng imkoniyatlar beradi. O'rta Osiyo mintaqasining ajoyib tabiati xorijiy va ichki sayyohlarni o'ziga jalb qilmasdan qolmaydi.

Markaziy Osiyo, boy tarix va hayratlanarli landschaftlarga boy mintaqa, rekreatsion turizm uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Pomir va Tyan-Shan tog' tizmalarining hayratlanarli cho'qqilaridan tortib Buyuk Ipak yo'ligacha bo'lgan hudud sarguzasht izlovchilarni ham, madaniyat ixlosmandlarini ham o'ziga tortadi.

## MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Rekreatsiya tushunchasiga ta'rif berishda, hamda uni turizm sohasi bilan bog'lash bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mahalliy olimlarimizdan A. Sadullayev, S. Avezov, A. Matchanovlar rekreatsiya so'ziga o'zlarining "Turizm va rekreatsiya geografiyasi" nomli kitobida shunday ta'rif berishgan: rekreatsiya, odatda, "dam olish, insonning mehnat jarayonida yo'qotgan kuch-quvvatini tiklash" hisoblanadi <sup>[1]</sup>. V. A. Kvartalnovning fikricha, rekreatsiya bu – insonning jismoniy, intellektual va emotsional kuchini kengaytirilgan tarzda qayta tiklash jarayonidir <sup>[2]</sup>. AQSh milliy turizm siyosati tadqiqotlar markazining ta'rifiga ko'ra esa, rekreatsiya bu – insonlarning bo'sh vaqtdan personal foydalanish jarayoni hisoblanadi. Mahalliy mutaxassis-lardan Z. Usmonovning tadqiqotlarida rekreatsiya tushunchasini uydan tashqarida, masalan, tabiatga turizm sayohatlarda, sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish muassasalarida dam olish yo'li bilan salomatlikni va ishchi kuchini tiklash ko'rinishida talqin etiladi <sup>[3]</sup>. Rekreatsiya atamasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning tadqiqotlarini umumlashtirgan holda Z. T. Abdulkakimov tomonidan: "Rekreatsiya – bu tabiiy muhitda inson o'zining ish qobiliyatini qayta tiklay olishi va dam olishi mumkin bo'lgan joylar (tabiatning manzarali joylari, baland tog' va tog' oldi hududlari, suv havzalari bo'ylari, soylar, sharsharalar, tabiiy yodgorliklar va qo'riqxonalar, davo-





lanish va dam olishga mo'ljallangan sanatoriy, turizm bazalar, tarixiy yodgorliklar, muzeylar, turli ko'rgazmalar, teatrlar, turli madaniy kechalar va tadbirlar)ni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir",—degan ta'rif ishlab chiqilgan <sup>[4]</sup>. Chunki rekreatsiya — nafaqat mehnat qobiliyatini qayta tiklash, balki ruhiy va jismoniy faoliyatni qayta tiklashni ham o'z ichiga oladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini amalga oshirishda, turli olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Markaziy Osiyo respublikalari turistik imkoniyatlari, rekreatsiya resurslari imkoniyatlari o'rganildi va tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanayotgan yosh sohalardan hisoblanadi. Shunga qaramasdan, ko'pgina sohalardan ilgarilab bormoqda. Respublika O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan mamlakat bo'lib, maydoni — 448,978 km.kv. Mamlakat ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega hudud hisoblanadi. Mamlakatning betakror tabiati, o'ziga xos iqlimi, go'zal dam olish maskanlari, tabiiy turistik resurslarning ko'pligi va faslning mujassamligi bu yerda turizmning rekreatsiya turini rivojlantirish imkonini beradi. Respublikaning YUNESCO ning maxsus ro'yxatiga kiritilgan qadimiy shaharlari, ularda mavjud tarixiy-madaniy obidalar, qulay iqlim, go'zal manzarali tog'lari xorijdan kelgan har bir turistda qiziqish uyg'otishi tabiiy. O'zbekistonning tarixiy shaharlari, xususan, Samarqand, Xiva, Buxoro, Shahrisabz shaharlaridagi betakror tarixiy yodgorliklar, me'moriy inshootlar yurtimiz tarixi va hozirgi davrni bog'lovchi rishta sifatida o'z o'rniga ega. Mamlakat turistik resurslarning ko'pligi bilan turizmning deyarli barcha turlarini rivojlantirish mumkin bo'lgan hudud hisoblanadi. Iqlimning o'ziga xosligi va go'zal tabiati o'lkada turizmning eng muhim yo'nalishlaridan biri- rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkonini beradi. Rekreatsiya turizmi o'zining sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega ekanligi bilan boshqa turizm turlaridan ajralib turadi. Dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan mintaqa bo'lsa ham O'zbekiston dunyodagi eng go'zal ko'llari, tabiiy va sun'iy suv havzalari va butun Markaziy Osiyoni qamrab olgan yirik daryolarining mavjudligi bilan ahamiyatlidir. O'zbekistonning ulug'vor tog'lari, go'zal va maftunkor sharsharalari, tog' oldi yaylovlari, qo'riqxonalar va o'rmon xo'jaliklari kabi resurslarga boyligi bu mas-kanning nihoyatda jozibador va turizmning istalgan turini rivojlantirish mumkinligidan dalolat beradi. Sog'lig'ini yaxshilash va tiklash maqsadida bo'lgan ichki va xorijiy sayyohlar uchun eng yaxshi dam olish maskanlari Toshkent viloyatida joylashgan "Humson Buloq", "Bildirsoy", "Chimyon", "Chorvoq" kabi ko'plab dam olish maskanlari dam olishga kelgan turistlarga tog' qoyalari tepasiga chiqish, suv bo'ylarida o'tirib dam olish, sohil bo'ylarida quyosh nurlaridan bahramand bo'lish kabi ajoyib imkoniyatlarni beradi. Va shu bilan birga, Ugam-Chotqol milliy bog'ining go'zal manzaralari, yil bo'yi yashil bo'lib turadigan tog' qarag'aylari, shinam turar joylari bilan dam olishga kelganlarga ajoyib kayfiyat beradi. O'zbekistonning tabiati ayniqsa, tog' yon bag'irlarida dam olgan va u yerlarning musaffo havosidan bahramand bo'lgan har qanday sayyoh bu yerlarga yana dam olish uchun qaytib kelish istagida bo'ladi.

O'zining go'zalligi va bepoyon dashtlari bilan mashhur bo'lgan Qozog'iston baland tog'lar o'lkasidir. Respublika O'rta Osiyo va Sharqiy Yevropa chegarasida joylashgan. Maydoni 2 mln.724, 9ming km.kv. Boshqa davlatlarga nisbatan Qozog'istonda qadimiy madaniy yodgorliklari kamroq saqlanib qolgan. Bu qadimda qozoqlarning ko'chmanchi turmush tarzi bilan bog'liqdir. Shunga qaramasdan, tabiiy resurslarga boyligi, go'zal landshafti, maftunkor tabiati, tarixiy va madaniy yodgorliklari yil davomida sayyohlarni o'ziga chorlaydi. Bu yerga kelgan turistlar tarixiy joylar va xarobalarga sayohat qilishlari, kurortda dam olishlari, cho'l va qumtepaliklar bo'ylab sayohat qilishlari mumkin. Qaydini ko'li, Tog'li Oltoy, Bo'zjira yo'li, Ko'lsay ko'llari, Qo'shiqchi qumtepa, Charin kanyoni kabi ajoyib manzarali qadamjolar rekreatsiya turizmi uchun qulay hududlar hisoblanadi.

Katon-Qorag'ay milliy bog'lari va Burbay kurort zonasi o'zining maftunkor tabiati bilan respublikada turistik ahamiyatga ega va mashhur hudud hisoblanadi. Qozog'istonning janubi-sharqiy qismida eng go'zal va o'zining shifobaxshligi bilan mashhur bo'lgan maskanlardan biri- Alakol ko'li mavjuddir. Ko'l sohillarida joylashgan dam olish maskanlari va pansionatlar dam olish maqsadida kelgan sayyohlar bilan gavjum bo'ladi. Mazko'r ko'lining suvini Qora dengiz suviga qiyoslashadi. Ko'lining tarkibida davriy jadvalning deyarli barcha elementlari mavjudligi sababli, ko'lda cho'milish inson salomatligiga nihoyatda foydali hisoblanadi.

Oltoy tog'larining eng yuqori nuqtasi hisoblangan Beluxa tog'i Rossiya davlati bilan chegaradosh hududda joylashgan. Balandligi 4,500 metr. Ushbu ikki boshli Beluxa tog'i turizmning ekstremal turi uchun qulay hududdir.

Kengey — Olatau darasida joylashgan Qayndi ko'li g'ayrioddiy kelib chiqishi va takrorlanmas go'zalligi bilan mashhurdir. Zilzila natijasida paydo bo'lgan ushbu ko'l sayyohlar uchun g'ayrioddiy manzara hisoblanadi. Ko'chkilar oqibatida to'sib qo'yilgan daraning bo'loq suvi bilan to'lishi natijasida hosil bo'lgan ko'lining manzarasi dam olishni istagan har bir sayyohni o'ziga maftun qilmasdan qolmaydi. Ko'l shunisi bilan jozibadorki, suv tagida qolgan o'rmon va firuza rangli tiniq suvda uchlari ko'rinib turgan daraxtlar ajoyib manzara kasb etadi.



Markaziy Osiyo respublikalari orasida Qirg'iziston o'zining tabiiy shifobaxsh resurslarga boyligi bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Rekreatsiya, ya'ni dam olishning muhim afzalliklaridan biri tog' iqlimi bo'lib, u davolash va profilaktika maqsadida foydalaniladi. Hududning turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan kurort zonalaridan biri Issiqko'l o'ziga xos iqlimli hudud hisoblanadi. Issiqko'l dunyoning turli hududlaridan kelgan sayyohlarda o'zining siriligi bilan qiziqish o'yg'otadi. Tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan ko'l tubidagi ko'plab suv osti shaharlari, sak va turkiy qabristonlar tashrif buyurgan sayyohlarni hayratda qoldirib kelmoqda.

Issiqko'l hududi balneologik resurslari, mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlar va termal buloqlar mavjud bo'lgan rekreatsion zona hisoblanadi.

Qirg'izistonning Arslon-Bob, Qora-Olma kabi yong'oq-mevali o'rmonlari kabi landshaft xususiyatlariga ega ajoyib hududlari mavjud. Tog' -iqlim kurortlari va ommaviy dam olish maskanlarini tashkil etishda ushbu hududlar yuqori o'rinlarni egallaydi. Ushbu respublika hududida umumiy 100 dan ziyod iqlim zonalar mavjud. Bu hududlarda iqlimdan davolovchi yoki profilaktik omil sifatida keng foydalaniladi. Respublikada nafaqat mahalliy, balki davlat ahamiyatiga ega dam olish maskanlari, sanatoriylar faoliyat ko'rsatadi.

Respublikaning tabiiy rekreatsion resurslariga hayvonot va o'simliklar dunyosini ham kirgizish mumkin. Ushbu resurslar botanika va zoologiya yodgorliklari hisoblanadi. Manzarali butalar, archali o'rmonlar, betakror gulli o'tloqlar va boshqa o'simliklar shahar hayotidan charchagan va dam olishni istagan sayyohlar uchun qulay imkoniyatlardan biridir.

Tojikiston Respublikasi O'rta Osiyo mintaqasining janubi-sharqida joylashgan eng jozibador va qiziqarli sayyohlik davlatlaridan biri hisoblanadi. Maydoni 143.100 km.kv. Tojikiston tog'li mamlakat bo'lib, hududining 93%ini O'rta Osiyoning eng yirik tog'lari – Tyan-Shan va Pomir tog'lari tizmasiga kiradigan tog'lar egallaydi (jadvalga qarang).

#### 1-jadval: O'rta Osiyoning eng yirik tog'lari

|   |                                   |        |                        |
|---|-----------------------------------|--------|------------------------|
| 1 | Qurama tizma tog'lari             | 3769 m | Shimoliy qismida       |
| 2 | Mo'g'ultog' tog'lari              | 1624 m | Shimoliy qismida       |
| 3 | Olay tog' tizmasi                 | 5539 m | G'arbiy qismida        |
| 4 | Turkiston tog'i                   | 5509 m | Shimoliy qismida       |
| 5 | Zarafshon va Chimtarg'a tog'lari  | 5489 m | Shimoliy qismida       |
| 6 | Hisor va Qorategin tog' tizmalari | 4643 m | Janubi-g'arbiy qismida |
| 7 | Pomir tog'lari                    | 7495 m | Janibi-sharqiy qismida |

Wikipedia ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Mamlakatda mavjud turli xil tabiiy landshaftlar, tog'li relyef, noyob flora va fauna kabi rekreatsion resurslar bu yerda dam olishning barcha turlarini rivojlantirish imkonini beradi. Tojikiston hududida joylashgan dunyodagi eng baland tog'lardan biri – osmono'par Pomir tog'i butun dunyoda "dunyo tomi" sifatida mashhurdir. Tog'dagi mavjud ovchilik xo'jaliklari, go'zal va tabiiy landshaftlar, termal va sovuq suvli mineral buloqlar, ajoyib va sirli g'orlar bu yerda yil davomida xorijiy va ichki sayyohlar bilan gavjum bo'lishiga sabab bo'ladi. Xorijiy davlatlardan kelgan alpinistlar tog'ning eng baland cho'qqilariga ekstremal sayohat uyushtirishadi. Shuningdek, mazko'r hududlarda turizmning rekreatsiya turlari, ya'ni alpinizm, tog' sporti, eko turizm, chang'i sporti, rafting, ov turizmi, dam olish va sanatoriya-kurortlarda davolanish kabi turlari rivojlangan.

Respublika hududida mineral va termal suv buloqlarining ko'pligi sababli, sanatoriya-kurort turizmi rivojlantirilmoqda. Ulardan "Zumrad", "Obi Garm", "Xavatog'" kabi sanatoriylar o'zlarining xizmat ko'rsatish sifati bilan boshqalaridan ajralib turadi. Sanatoriya tashrif buyurgan dam oluvchi tabiat qo'ynida dam olib, musaffo havo va go'zal manzaradan bahramand bo'ladi.

Yana bir dam olish zonalaridan biri inson qo'li bilan yaratilgan Pomir botanika bog'i tog' yon bag'rida joylashgan haqiqiy mo'jizadir. Botanika bog'iga dunyoning barcha qit'alaridan 20 mingdan ziyod o'simliklar olib kelingan. Ularning orasida Amur baxmali, qo'ziqorin daraxti, avstraliyadan keltirilgan qarag'qay kabi o'simliklarning noyob va g'alati namunalari va beqiyos xushbo'y hidli atirgullarning nodir kolleksiyasi bor.

Hozirgi Ko'lob shahri ( qadimgi Xutal) o'zining guzal va diqqatga sazovor joylari bilan sayyohlarda kata qiziqish o'yg'otadi. Betakror tabiat yodgorligi bo'lgan Xo'ja Mo'min tog'i turli rangdagi to'q va kulrang, zangori yashil va pushti ranglardan iborat. Ushbu tog' butun insoniyatni yuzlab yillar davomida ta'minlaydigan tuz zaxiralariga ega. Xo'ja Mo'min tog'ining yana bir mo'jizasi shundan iboratki, bu yerda shamol ta'sirida hosil bo'ladigan musiqasi bilan mashhur bo'lgan g'orlar bor. G'orlarga kiraverishda osilgan uzun va yupqa shisha muzlar shamolning ta'sirida ajoyib tovushlar chiqaradi.

Tojikistonga sayohat qilish uchun eng qulay mavsum bahor oylari hisoblanadi. Bu davrda tog' yon bag'irlari ulkan gulli gilamga aylanadi. Pomir tog'lariga chiqish uchun esa, yoz fasli qulayroq. Chunki bu vatda tog'ning iqlimi turistlar uchun ma'qul hisoblanadi.



Ko'lob viloyatining sayyohlar uchun yana bir ahamiyatli jihati bu yerda "muzeylar majmuasining" borligidir. Muzey bir nechta bo'limlardan tashkil topgan. Muzeyga tashrif buyurgan sayyohlar Ko'lob viloyatining geografiyasi va tabiati Qizil kitobga kiritilgan o'simlik va hayvonot dunyosi namunalari, qadimiy topilmalar, tojik oilasining maishiy turmush tarzi, tojiklarning an'anaviy kiyim-kechaklari va zargarlik buyumlari, qadimgi musiqa asboblari, san'at va hunarmandchilik asarlari va shunga o'xshash eksponatlardan bahramand bo'ladi.

Markaziy Osiyoning yana bir sayyohlik rivojlanayotgan respublikalaridan biri, o'zining sirli va hali to'liq kashf etilmaganligi bilan turistlarni qiziqtirayotgan mamlakat bu- Turkmanistondir. Maydoni 488,100 km.kv. Ushbu davlat Osiyodagi eng kam aholisi bo'lgan davlatlardan biridir. Turkmaniston hududining aksariyat qismi bo'lib, deyarli 4/5 qismi Turon tekisligi (Qoraqum cho'li) da joylashgan. Mamlakat me'moriy, tarixiy va tabiiy diqqatga sazovor manzilgohlari bilan ajralib turadi. Bu yerda qadimgi shahar xarobalari, afsonaviy Axal- Teke otlari, Darvaza deb nomlanuvchi cho'l qumlari orasida uzoq yillardan beri yonayotgan gaz krateri kabi qiziqarli, sirli manzillar joylashgan. Turkmaniston nihoyatda rang-barang mamlakat bo'lib, tabiiy mo'jizalarning cheksizligi bilan sayyohlarni hayratda qoldiradi. Turkmanistonning bepoyon dashtlari bo'ylab g'ildiraklarning ritmik sadosi ostida poyezdda sayohat qilish albatta har bir turist uchun takrorlanmas bo'lishi mumkin. Qoraqum sahrosidagi qumtepalar esa, sayyohlarda unutilmas taassurot qoldiradi.

Ajoyib va go'zal Yangiqal'a kanyoniga tashrif buyurgan sayyohlar go'zal qoyalar va tog' tizmalari orasida sayr qiladilar. Qo'yendag' nomli qo'riqxonada esa bir paytlar bu yerlarda yashagan dinozavrlarning izlarini ko'rishlari mumkin. Dunyoning mo'jizalaridan biri bo'lgan, alvon alangasi bilan mashhur bo'lgan Darvaza krateri o'zining ko'lam va go'zalligini tunda, ochiq osmon ostida ta'sirli aks ettiradi.

Turkmaniston cho'l mintaqasi bo'lgani bilan, suvda dam olishni hohlovchilar uchun ham imkoniyatlar yetarlidir. Kaspiy dengizi sohillarida xohlagancha suzishlari mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarning turistik va rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish, ichki turistlar bilan birga xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish imkoniyatlaridan foydalangan holda, quyidagi takliflarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- mintaqada mavjud dam olish maskanlarining faoliyatini barqarorlashtirish, mahalliy va xorijiy OAVlarda targ'ib qilish;
- turistik va rekreatsiya resurslaridan foydalangan holda ular joylashgan hududlarning infratuzilmasini yaxshilash, atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda, yangi dam olish maskanlarini tashkil qilish va zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasida madaniy va turistik aloqalarni rivojlantirish, xalqaro turizm bozorida o'zlarining barcha turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sadullayev A. S. Turizm va rekreatsiya geografiyasi [o'quv- uslubiy qo'llanma]:/ A. S. Sadullayev, S. Avezov, A. Matchanova- Xiva: Xorazm Ma'mun Akademiyasi, 2019.- 100 b.
2. Квартальнов В. А. Туризм. Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 320 с.
3. Usmanova Z. I. O'zbekistonda turizm – rekreatsiya xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendentsiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – SamISI, 2018 y. - 12 b
4. Sharunenko Y. M. Recreational Tourism [Electronic source]: Eeducational–methodical manual. Orel: Interregional Academy of Safety and Survival 2014 - 102p. URL: <http://www.iprbookshop.ru/33439.html>. – ЭБС "IPRbooks"
5. Éva Csirmaz a, Károly Pető PhD International Trends in Recreational and Wellness Tourism Procedia Economics and Finance. Volume 32, 2015, Pages 755–762 [https://doi.org/10.1016/S2212-5671\(15\)01458-6](https://doi.org/10.1016/S2212-5671(15)01458-6)
6. Бурменко Т. А. Байкальский государственный университет, Российская Федерация, к вопросу о содержании понятия "Оздоровительный туризм" региональная и отраслевая экономика. И.: – 2016. № 26(1). – С. 42–49
7. Panasiuk A. (eds.) Ekonomia turystyki i rekreacji. Wydawnictwo Naukowe PWN; 2011
8. Очилова, Хилола Фармоновна, Мухаммадсидик Амонбоев, and Бурхон Рустамович Дехонов. "Развитие внутреннего туризма для восстановления отрасли после пандемии." Заметки ученого 12 (2020): 242–247.
9. Rustamovich, Dehkonov Burhan. Quality And Safety Of Public Catering Services In Uzbekistan. // European Journal of Life Safety and Stability (2660–9630)(2021/5/23): 19–23.
10. Rustamovich, Dehganov Burkhan. Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services. // Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya 2.3 (2023): 35–37.
11. Abdulkakimov Z. T. Mintaqada rekreatsiyasidan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – SamISI, 2019 y. - 12 b.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

